



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI

ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOTLAR



*2025-yil 1-fevral holatiga ko'ra (fermer va
dehqon xo'jaliklarisiz)*

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar
bazasi asosida shakllantirildi


So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2025-yil 1-fevral holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari 25 518 tani tashkil etdi, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 20 235 ta.

Shuningdek, ushbu davrga 53 576 ta korxonalar ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,3 foizni tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar soni to'g'risida umumiy ma'lumotlar

(1-fevral holatiga)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar


(2025-yil yanvar holatiga)

2025-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 384 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. Jumladan: Paxtaobod (23 taga), Baliqchi (22 taga) va Izboskan tumanida (12 taga) o'sish mavjud. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida – 52 taga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 7 taga hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari – 6 taga ko'paygani bilan izohlash mumkin.


Yillar kesimida soni

(birlikda)




Hududlar kesimida soni

(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)




(2025-yil 1-fevral holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2025-yil 1-fevral holatiga 25 518 tani tashkil etdi, ulardan 20 371 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 30,1 foiz, sanoat – 17,2 foiz, qurilish – 6,1 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 5,2 foiz, hududlar kesimda esa eng ko'pi Andijon shahrida – 26,5 foiz, tumanlardan Asaka – 8,2 foiz, Andijon – 8,0 foiz, Shahrixon – 6,9 foiz va Baliqchida – 6,0 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2025-yil yanvar holatiga)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2025-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 316 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 316 ta.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2025-yil 1-fevral holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025-yil 1-fevral holatiga 20 371 tani tashkil etdi, ulardan 20 235 tasi kichik korxonalar va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 37,7 foiz, sanoat – 21,5 foiz, qurilish – 7,6 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 6,3 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 5,9 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 4,4 foiz, tashish va saqlash – 3,4 foiz, axborot va aloqa – 2,0 foiz, boshqa turlari – 11,2 foiz.


Yillar kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)




(2025-yil yanvar holatiga)

Mamlakat iqtisodiyoti "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2025-yil yanvar oyida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2024-yilning mos davriga nisbatan 11 tadan 18 taga (o'sish 7 taga), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 15 tadan 21 taga (o'sish 6 taga) ko'paydi.


Yillar kesimida soni

(birlikda)




Hududlar kesimida soni

(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni


(birlikda)




(2025-yil 1-fevral holatiga)

Hududlar kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Andijon shahrida (27,6 foiz), Andijon (8,4 foiz), Asaka (8,3 foiz), Shahrixon (6,8 foiz) va Baliqchi (6,0 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Yillar kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar

(2025-yil 1-fevral holatiga)

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning eng ko‘p qismi Asaka (13,1 foiz), Baliqchi (9,8 foiz) va Ulug‘nor (9,4 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

1 201



113

Baliq ovlash va akvakultura

O‘rmonchilik va yog‘och tayorlash

9



(2025-yil 1-fevral holatiga)



Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 17,2 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 94,8 foizini ishlab chiqarish sanoati, 2,4 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,9 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish va 0,9 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	1 233
Andijon t.	504
Asaka t.	352
Shahrixon t.	321
Xo'jaobod t.	268
Baliqchi t.	225
Oltinko'l t.	216
Qo'rg'ontepa t.	200
Jalaquduq t.	188
Marhamat t.	163
Izboskan t.	163
Buloqboshi t.	156
Paxtaobod t.	126
Bo'ston t.	119
Xonobod sh.	83
Ulug'nor t.	81

Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025-yil 1-fevral holatiga)


O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 55,4 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 27,6 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 17,0 foiz ulushni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Yillar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	530
Shahrixon t.	124
Andijon t.	121
Asaka t.	121
Bo'ston t.	89
Oltinko'l t.	89
Izboskan t.	67
Baliqchi t.	64
Marhamat t.	60
Paxtaobod t.	52
Xo'jaobod t.	52
Qo'rg'ontepa t.	47
Ulug'nor t.	46
Buloqboshi t.	43
Jalaquduq t.	34
Xonobod sh.	23



Bino va inshootlar qurish

866

431

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish

265

(2025-yil 1-fevral holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 7 648 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 62,5 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 31,0 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 6,5 foiz ulushni tashkil etdi

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	1 769
Asaka t.	613
Andijon t.	608
Baliqchi t.	547
Shahrixon t.	533
Oltinko'l t.	453
Izboskan t.	437
Qo'rg'ontepa t.	435
Jalaquduq t.	414
Paxtaobod t.	344
Xo'jaobod t.	333
Marhamat t.	310
Ulug'nor t.	273
Bo'ston t.	255
Buloqboshi t.	213
Xonobod sh.	136

Yillar kesimida soni (birlikda)



4 794

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

2 379

500

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

(2025-yil 1-fevral holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2025-yil 1-fevral holatiga 1 211 taga yetib, ularning 1 208 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:




mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2025-yil 1-fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 5,6 foiz ulushini tashkil etdi;

restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 94,4 foiz ulushini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	436
Andijon t.	108
Asaka t.	86
Shahrixon t.	67
Qo'rg'ontepa t.	61
Oltinko'l t.	57
Baliqchi t.	56
Jalaquduq t.	51
Marhamat t.	49
Ulug'nor t.	45
Izboskan t.	44
Paxtaobod t.	42
Xonobod sh.	32
Buloqboshi t.	28
Xo'jaobod t.	26
Bo'ston t.	23

Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025-yil 1-fevral holatiga)

2025-yil 1-fevral holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxonalar va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 76,3 foizini;


Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 20,7 foizini;


Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 3,0 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	141
Baliqchi t.	36
Marhamat t.	33
Xo'jaobod t.	29
Andijon t.	25
Buloqboshi t.	23
Asaka t.	19
Paxtaobod t.	15
Ulug'nor t.	15
Qo'rg'ontepa t.	15
Oltinko'l t.	14
Shahrixon t.	13
Izboskan t.	9
Jalaquduq t.	7
Bo'ston t.	7
Xonobod sh.	5

Yillar kesimida soni (birlikda)



 Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar	117	193	Aloqa 
 Noshirlik faoliyati	34	50	Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyati 
 Kino-videofilmlar,televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish	8	4	Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish 

(2025-yil 1-fevral holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 891 ta yoki 86,2 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 97,2 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri keladi;


yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 1,8 foizni tashkil etdi;

yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,0 foizini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	337
Asaka t.	81
Oltinko'l t.	68
Andijon t.	67
Izboskan t.	66
Baliqchi t.	65
Shahrixon t.	65
Paxtaobod t.	58
Marhamat t.	44
Xo'jaobod t.	44
Jalaquduq t.	42
Qo'rg'ontepa t.	39
Buloqboshi t.	29
Xonobod sh.	11
Bo'ston t.	10
Ulug'nor t.	8

Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025-yil 1-fevral holatiga)

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	243
Asaka t.	54
Shahrixon t.	52
Andijon t.	47
Marhamat t.	45
Bo'ston t.	37
Paxtaobod t.	37
Xo'jaobod t.	28
Oltinko'l t.	28
Izboskan t.	28
Qo'rg'ontepa t.	23
Baliqchi t.	23
Jalaquduq t.	19
Buloqboshi t.	18
Ulug'nor t.	18
Xonobod sh.	7

2025-yil 1-fevral holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 2,8 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:



- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 68,5 foizni tashkil etdi;

- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 29,8 foizni;

- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 1,6 foizni;

- havo transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 0,1 foizni tashkil etgan.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma‘lumot

(2025-yil 1-fevral holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma‘lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta‘minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni *(birlikda)*

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi *(foizda)*



(2025-yil yanvar holatiga)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	74	Izboskan t.	13
Andijon t.	27	Xo'jaobod t.	13
Shahrixon t.	24	Buloqboshi t.	13
Paxtaobod t.	21	Qo'rg'ontepa t.	12
Baliqchi t.	18	Oltinko'l t.	12
Ulug'nor t.	16	Marhamat t.	11
Asaka t.	15	Bo'ston t.	7
Jalaquduq t.	14	Xonobod sh.	3

(2025-yil 1-fevral holatiga)

Amaldagi 20 371 ta tijorat korxonasi va tashkilotlaridan 2025-yil 1-fevral holatiga mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 17 204 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,4 foiz, sanoat – 20,8 foiz, qurilish – 8,4 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 5,8 foiz.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	4 962	Xo'jaobod t.	777
Andijon t.	1 420	Jalaquduq t.	771
Asaka t.	1 233	Qo'rg'ontepa t.	765
Shahrixon t.	1 193	Paxtaobod t.	714
Baliqchi t.	1 021	Ulug'nor t.	591
Oltinko'l t.	871	Buloqboshi t.	482
Izboskan t.	838	Bo'ston t.	465
Marhamat t.	810	Xonobod sh.	291


(2025-yil 1-fevral holatiga)

2025-yil 1-fevral holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan Andijon shahrida – 405 ta, Asaka – 267 ta va Baliqchi tumanida – 162 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 694 ta, sanoat – 305 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 139 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 139 ta.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	405
Asaka t.	267
Baliqchi t.	162
Oltinko'l t.	110
Qo'rg'ontepa t.	106
Andijon t.	102
Jalaquduq t.	100
Shahrixon t.	99

Marhamat t.	84
Xo'jaobod t.	83
Izboskan t.	64
Bo'ston t.	53
Paxtaobod t.	49
Buloqboshi t.	42
Xonobod sh.	29
Ulug'nor t.	25

(2025-yil 1-fevral holatiga)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2025-yil 1-fevral holatiga ko'ra 1 205 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: sanoat – 37,4 foiz, savdo – 28,5 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 13,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 9,4 foiz, hududlar kesimda esa eng ko'pi Andijon shahri – 17,3 foiz, Andijon – 14,4 foiz, Asaka – 13,8 foiz va Bo'ston tumanida – 12,0 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Yillar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	209
Andijon t.	174
Asaka t.	166
Bo'ston t.	144
Qo'rg'ontepa t.	121
Shahrixon t.	86
Oltinko'l t.	79
Buloqboshi t.	59

Izboskan t.	51
Baliqchi t.	30
Xonobod sh.	23
Marhamat t.	18
Ulug'nor t.	17
Paxtaobod t.	11
Jalaquduq t.	9
Xo'jaobod t.	8

(2025-yil 1-fevral holatiga)



O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Qo'rg'ontepa (11,4 foiz), Jalaquduq (10,5 foiz) va Ulug'nor (10,2 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Qo'rg'ontepa t.	962
Jalaquduq t.	883
Ulug'nor t.	861
Paxtaobod t.	766
Andijon t.	687
Asaka t.	662
Baliqchi t.	612
Xo'jaobod t.	567
Marhamat t.	565
Izboskan t.	494
Shahrixon t.	412
Buloqboshi t.	332
Bo'ston t.	310
Oltinko'l t.	293
Xonobod sh.	8
Andijon sh.	2

Yillar kesimida soni (birlikda)




Faoliyat ko‘rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar

(2025-yil 1-fevral holatiga)

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e‘tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan 315 ta korxonalardan 118 tasi qo‘shma korxonalar va 197 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	137
Andijon t.	23
Oltinko‘l t.	19
Asaka t.	15
Jalaquduq t.	15
Shahrixon t.	14
Buloqboshi t.	14
Izboskan t.	13

Xo‘jaobod t.	12
Xonobod sh.	10
Marhamat t.	9
Baliqchi t.	8
Ulug‘nor t.	8
Paxtaobod t.	8
Qo‘rg‘ontepa t.	6
Bo‘ston t.	4

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Chet el investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 309 tadan 315 taga (o'sish 6 taga) ko'paydi.

Yetakchi o'rinni 88 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu, viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 27,9 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Andijon viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya (ulushi 19,4 foiz), Turkiya (ulushi 15,9 foiz), Qirg'iz Respublikasi (ulushi 13,0 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 7,9 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanadilar.

(2025-yil 1-fevral holatiga)



Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalar jami soniga nisbatan eng katta ulushi Andijon shahriga 43,5 foiz, tumanlar orasida esa Andijon – 7,3 foiz, Oltinko'l – 6,0 foiz, Asaka – 4,8 foiz, va Jalaquduq – 4,8 foiz to'g'ri keladi.

(2025-yil 1-fevral holatiga)

qo'shma korxonalar

xorijiy korxonalar




So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

(2025-yil 1-fevral holatiga)

qo'shma korxonalar

xorijiy korxonalar



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tuzilishidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016-yil 24-avgustdagi** "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2025-yil 1-fevral** holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi
STATISTIKA AGENTLIGI

Orqaga qaytish

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

STIR kodini kiriting

Axborot beruvchining faoliyat sohasi (statistik bo'limi)

Rasmdagi kodni kiriting

Olish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Statistika Agentligi
2002 yil



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 74 228-29-74

PRESS-RELIZ

